

O'zbekiston ShHT makonida savdo munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar bildirdi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-iyun kuni Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitining keng doiradagi muzokaralarida ishtirok etdi.

Unda tashkilotga a'zo mamlakatlar bilan birga kuzatuvchi maqomidagi davlatlar, xalqaro tashkilotlar delegatsiyalari rahbarlari qatnashdi.

Shavkat Mirziyoyev ShHT faoliyatini takomillashtirish, savdo va transport aloqalarini rivojlantirish, xavfsizlikni mustahkamlashga doir muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

"Joriy yil boshidan O'zbekistonning ShHTga a'zo davlatlar, uning kuzatuvchilari va sheriklari bilan savdosi hajmi o'ttiz foizdan ziyod oshdi. Lekin bu mavjud imkoniyatlarimizning cheki emas.

Bizning fikrimizcha, tovar ayriboshlashni yanada o'stirish uchun eksport-import tartib-taomillarini soddalashtirish kerak.



Shuningdek, biz davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida agrosanoat klasterlarini shakllantirish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berishda "yashil yo'laklar" tarmog'ini kengaytirish tarafborimiz", dedi davlatimiz rahbari.

ShHT makonining transport-tranzit salohiyatidan samarali foydalanish zarurligi, bu borada "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida mintaqalararo transport loyihalarini amalga oshirish dolzARB ahamiyatga ega ekani ta'kidlandi.

Mamlakatimiz O'zbekiston – Qирғизистон – Xитой, Мозори Шариф – Ҳирот темир yo'llarini qurish, shuningdek, Markaziy Oсиyo – Fors ko'rfazi, Shimol – Janub va Sharq – G'arb transmintaqaviy yo'laklarni rivojlantirish tarafдори ekani qayd etildi.

Prezidentimiz yuqori texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, muqobil energetika va zamonaviy tibbiyat sohalarida innovatsion dasturlar va loyihalarni birlgilikda amalga oshirish masalalari bo'yicha ham o'z takliflarini bildirdi.

president.uz